

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
CHIRCHIQ FILIALI**

«TASDIQLAYMAN»

Sog‘liqni saqlash vazirligi

Ilmiy texnik kengashi raisi

_____Sh.K.Atadjanov

«____» _____ 2026 y.

Nematov Abdurashid Abdug‘affor o‘g‘li

**COVID-19 NING TARQALISH XUSUSIYATLARI, GIGIYENIK
OMILLARI VA LABORATORIYA XIZMATLARINING EPIDEMIYANI
BOSHQARISHDAGI O‘RNI
(Monografiya)**

Chirchiq – 2026

Tuzuvchilar:

Nematov A.A. - ToshDavTU Chirchiq filiali “Gigiyena, mikrobiologiya va epidemiologiya” kafedrası mudiri, v.v.b dotsent, PhD.

Taqrizchilar:

Nurmatov B.Q. ToshDavTU Chirchiq filiali O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, dotsent, PhD.

Ortiqov B.B. Toshkent davlat tibbiyot universiteti “Bolalar, o‘smirlar va ovqatlanish gigiyenasi” kafedrası dotsenti, PhD.

Monografiya Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filialining “Ekspertlar kengashi” hay’atida (bayonnoma № ____ “____” _____ 2026-y.) va Ilmiy kengashida (bayonnoma № ____ “____” _____ 2026-y.) ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.

MUNDARIJA

	KIRISH	5
I bob	COVID-19 ning etiologik strukturasi va epidemiologik xususiyatlari.....	9
1.1	Koronavirus infeksiyalarining (SARS-CoV, MERS-CoV, SARS-CoV-2) kelib chiqish tarixi va etiologik tuzilishi.....	9
1.2	O‘zbekistonda COVID-19 kasalligi tarqalganligining mavsumiylik xususiyatlari.....	17
1.3	COVID-19 kasalligining yosh va jinsga xos xususiyatlari.....	24
II bob	COVID-19 kasalligining klinik kechish xususiyatlari.....	Ош ибк а! Зак лад ка не опр еде лен а.
2.1	Bemorlarda kasallik darajalarining farqlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari.....	Ош ибк а! Зак лад ка не опр еде лен а.
2.2	Hamroh kasalligi bor bemorlarda COVID-19 kasalligining kechish xususiyatlari	32
III bob	COVID-19 kasalligi rivojlanishiga ta’sir etuvchi gigiyenik omillari va ularni integral baholash	36
3.1	Koronavirus infeksiyasi (SARS CoV-2) tarqalganligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-gigiyenik va tibbiy-biologik omillar.....	36

3.2	COVID-19 kasalligi kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi xavf omillarini prognozlash va uning profilaktikasiga tizimli yondashuv	50
IV bob	Kasallik xavfini kamaytirishda maxsus laboratoriya muassasalarining o‘rni	Ош ибк а! Зак лад ка не опр еде лен а.
4.1.	Pandemiya davrida maxsus laboratoriya muassasalarini tashkil qilish.....	Ош ибк а! Зак лад ка не опр еде лен а.
4.2.	Kasallikni erta aniqlash va tashxislashda laborator tahlil natijalarining o‘rni	61
V bob	Pandemiya davrida yuqumli kasalliklarni nazorat qilishda monitoring tizimining ahamiyati	67
VI bob	Bemorlarga ko‘rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmat va uni yaxshilash yo'llari	71
	Xotima	80
	Xulosalar	86
	Adabiyotlar ro‘yxati	88

FOYDALANILGAN QISQARTMA SO‘ZLAR

SARS-CoV-2- Og‘ir o‘tkir respirator distress sindromi koronavirusi-2

COVID-19- Koronavirus kasalligi-2019

SARS-Og'ir o'tkir respirator distress sindromi

MERS- Yaqin Sharq respirator sindromi

PHEIC- Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan jamoat salomatligining favqulotda holati

JSST- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

BTSYo- Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami

SSV-Sog'liqni saqlash vazirligi

O'RVI-o'tkir respirator virusli infektsiya

RNK- Ribonuklein kislota

PZR-Polimeraza zanjir reaksiyasi

IFA-Immunofermentanaliz

DNK-dezoksiribozanuklein kislota

LAT-Laboratoriya axborot tizimi

O'zRes SEOvaJSQ - O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat solamatlgi qo'mitasi

KIRISH

Butun dunyoda koronavirus infeksiyasi SARS-CoV-2 (og'ir o'tkir nafas olish sindromi koronavirusi-2) keltirib chiqaradigan yuqumli kasallik (COVID-19) ilk marotaba Xitoyning Uxan shahri Xubey provinsiyasida aniqlandi (1.12. 2019 y) va u global miqyosda tarqalib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan xalqaro sog'liqni saqlashning favqulodda holati (Public health emergency of international concern (PHEIC), (30.01.2020 y) 2020-yilning 11-mart kunidan esa uni koronavirus pandemiyasi deb e'lon qilindi. Hozirda (04.08.2022) dunyoda ushbu kasallik bilan kasallanganlar soni 581 mln ga yaqin, shundan vafot etganlar soni 6 mln 412 ming nafardan oshiqni tashkil etmoqda.

Dunyo bo'ylab COVID-19 pandemiyasi tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda salbiy oqibatlarga: eng yirik global retsessiyaga; buyuk depressiyaga hamda 265 million insonlar orasida katta ocharchilikka olib keldi. Oxirgi ikki yilda pandemiya sababli asosiy mikro va makro-iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayib, aholi turmush sifatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatdi. Pandemiya ko'plab davlatlarni iqtisodiy va moliyaviy inqiroz (bank tizimidagi likvidlik muammolari), qarz (qo'shimcha qarzning oshishi) hamda valyuta inqiroziga (tashqi savdoning pasayishi) olib keldi. Dunyoda COVID-19 bilan kasallanishning oldini olish, aholi o'rtasida o'lim holatlarini kamaytirish, jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish bo'yicha barcha davlatlar tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari so'nggi yillarda dunyo davlatlari orasida avj olgan COVID-19 pandemiyasi Sog'liqni saqlash muassasalari (laboratoriya muassasalari) va unda faoliyat olib boruvchi tibbiyot hodimlariga og'ir yukni qo'ydi. Jumladan og'ir o'tkir respirator sindromli koronavirus 2 (SARS-CoV-2) keltirib chiqargan infeksiyasiga chalingan bemorlarni ro'yxatga olish, bemorlardan olingan na'munalarni saralash, malakali-ixtisoslashtirilgan kadrlar yetishmasligi, laboratoriya tahlil jarayonlari hamda natijalarining monitoringini olib borishda yetarlicha muammoga duch kelindi. Bundan tashqari Preanalitik bosqichda to'g'ri anatomik joydan kerakli vaqtda to'g'ri nafas olish yo'llari namunasini yig'ish COVID-19 ning tezkor va aniq molekulyar diagnostikasi uchun juda kerakli omillardan biri hisoblanadi.

COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashning asosiy yondashuvlaridan biri sifatida aniq va ishonchli laborator tahlillarning mavjudligi, shubhali populyatsiyalarda infeksiyani aniqlash, simptomatik yoki asimptomatik shaxslarga tashxis qo'yish uchun zarurdir. Jahonda sog'liqni saqlash tizimlarining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri ishonchli laboratoriya sinovlaridir. Shu sababli, COVID-19 pandemiyasini jilovlash, kasallikka chalingan bemorlarni va bemor bilan muloqotda bo'lganlarni izolyatsiya qilish va davolashning muhim vositalaridan biri sifatida, har bir mamlakat uchun eng yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish va laborator tahlili ma'lumotlarini boshqarish hamda monitoringini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimida aholining turli qatlamlari orasida koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olish va kamaytirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordamning sifatini hamda karantinga qarshi olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlarni samaradorligini oshirish, va ularni optimallashtirish bo'yicha bir qator tizimli chora-tadbirlar, jumladan: «Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadi»¹ga qaratilgan muhim vazifalar belgilandi. Shunga qaramasdan COVID-19 kasalligi, dunyo davlatlari va mamlakatimizda butunlay tugatilishi mavhumligicha qolmoqda. U to'liqsimon ko'rinishda kamayib ko'payib bormoqda. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda COVID-19 kasalligini erta tashxislash, kompleks-tizimli profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, kasallikning kelib chiqishi va rivojlanishiga tasir etuvchi yetakchi xavf omillarini erta aniqlash va ularning ta'sirini kamaytirish maqsadida prognostik jadvalni ishlab chiqish, aholining turmush tarzi va turmush sharoitini hamda aholiga

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-sonli «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni

ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordamlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek mamlakatimizda ham epidemiyani jilovlash bo'yicha ishlarni qat'iy ilmiy asosda olib borish, yurtimizdagi epidemiya ko'lamini baholash, shuningdek, qarorlar qabul qilishda faqat ishonchli manbalardan foydalanish o'ta muhimdir. Buning uchun laboratoriya tahlil ma'lumotlarining yagona ishonchli elektron platformasini shakllantirish va amaliyotga joriy qilish hamda ushbu platforma bo'yicha tibbiyot hodimlarini o'qitish va doimiy malakasini oshirib borish hodimlar ish yuklamasini kamaytirishga, tahlil natijalarining ishonchliligini, tezkorligini ta'minlashga buning natijasida esa bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu borada «Elektron sog'liqni saqlash» tizimlarini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari majmuini yaratish»²ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimida qator islohotlar amalga oshirilishiga qaramasdan aholi orasida yuqumli kasalliklarni oldini olish, kamaytirish, laborator muassasalari faoliyatini yanada yaxshilash sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda laboratoriya muassasalarini axborotlashtirish va raqamlashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Axborotning ulkan oqimlarini qayta ishlash: tahlil qilish, jamlash va boshqarish zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanmasdan deyarli mumkin emas. Tibbiy jarayonni axborotlashtirishdan maqsad hozirgi kunda yakuniy natijadagi "tibbiy yordam sifati" deb yuritiladigan resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi PF-5937-son "O'zbekiston Respublikasida yangi turdagi koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha Respublika Maxsus Komissiyasini tuzish to'g'risida" gi va 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035-son "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-sonli «Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni

to'g'risida" gi farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 176-sonli "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. COVID-19 NING ETIOLOGIK STRUKTURASI VA EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

1.1. Koronavirus infeksiyalarining (SARS-CoV, MERS-CoV, SARS-CoV-2) kelib chiqish tarixi va etiologik tuzilishi

Dunyo aholisi XXI-asrda koronavirus oilasiga mansub viruslar tomonidan kelib chiqqan jami uchta epidemiyani boshidan o'tkazdi.

Dastlabki epidemiyalar SARS-CoV va MERS-CoV turiga tegishli viruslar tomonidan kelib chiqqan bo'lib, 2002 va 2012-yillarda og'ir o'tkir respirator distress sindromi (SARS) va Yaqin Sharq respirator sindromi(MERS) deya nom olgan [197,6,93, 37,1,76,2,124,155].

Dastlabki ikki epidemiyadan farqli o'laroq, COVID-19 kasalligi JSST tomonidan dunyoda pandemiya holati deb e'lon qilindi va og'ir o'tkir respirator sindromi-2 (SARS-CoV-2) virusi ushbu pandemiyaning etiologik omili ekanligi deb e'tirof etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu virusni dunyo bo'yicha 574 milliondan ortiq odam yuqtirib olgan va ulardan 6 milliondan oshig'i hayotdan ko'z yumgan [177,10,78,]. Hozirgi kunda COVID-19 kasalligi dunyo mamlakatlari orasida ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy jihatdan mahalliy va xalqaro miqyosda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Koronavirus so'zi elektron mikroskop ostida ko'rilganda sirtida tojga o'xshash oqsillari bo'lganligi sababli lotincha“corona”so'zidan kelib chiqqan holda nom berilgan [133]. Koronaviridae oilasining coronavirinae turkumi, nidovirales turiga kiradi. Coronavirinae turkumi to'rt avloddan iborat bo'lib bular: alfakoronavirus, betakoronavirus, delta koronavirus va gamma koronavirustir. SARS-CoV-2 shtammi genom ketma-ketligi tahlili asosida betakoronavirus avlodiga mansub ekanligi tasniflandi [200]. Ushbu viruslarning bir oilaga tegishli bo'lganligi sababli ularni bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi va ko'p o'xshashliklariga qaramay, bir-biridan ajratib turadigan kichik farqlar ham mavjud. Koronaviridae bir zanjirli RNK genomini o'z ichiga olgan viruslar bo'lib hisoblanadi [146,153,171,200,196,176].

Garchi HCoVlar bir necha o'n yillar oldin aniqlangan va ularning klinik ahamiyati, epidemiyani keltirib chiqarish ehtimoli mavjud bo'lsa-da SARS hamda MERS avj

olmaguncha ushbu viruslar kasallik qo'zg'atuvchisi sifatida tan olinmagan[41, 193,43,85,126, 48,89,97].

Olimlar dastlab SARS va MERS qo'zg'atuvchilarining tabiiy manbai palma po'stlog'i va dromedariy tuyalari deb hisoblashgan[58,9]. Ammo virusologik va genetik ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, SARS va MERS qo'zg'atuvchilari tabiiy manbai palma po'stlog'i va dromedariy tuyalari emas, balki ulardan foydalangan odamlargina ularni yuqtirishganliklari aniqlash hamda bu ularning odamdan odamga yuqishida oraliq xo'jayin ekanligi isbotlandi [99.76].

Birinchi SARS-CoV epidemiyasi Gong Kongdagi mehmonxonada qayd etilib, kelib chiqishi esa Xitoydagi Guangdong hayvonot bozoridan boshlandi. SARS-CoV virusi Xitoy taqachi ko'rshapalaklarda borligi aniqlandi va tekshiruvlar natijasida ushbu ko'rshapalaklar oldin bu virus bilan kasallanganligi to'g'risida dalillar topildi [90,98]. Asta-sekin bu virusning tarqalishi oqibatida 24 dan ortiq mamlakatlarda kasallanish holatlari qayd etildi va dastlab 8098 ta holatlar aniqlangani to'g'risida xabar qilindi va kasallanganlarning 9% da o'lim holatlari tasdiqlandi. O'lim holatlarining yuqori ulushi keksa yoshdagi aholi vakillari (60 yoshdan yuqori) hissasiga (50%) to'g'ri keldi. Natijada nafaqat o'lim holatlari oshdi, balki dunyo mamlakatlarida ma'lum darajada iqtisodiy pasayishlar yuzaga keldi [49].

Yaqin Sharq nafas olish sindromi koronavirusi (MERS-CoV) – bu birinchi marta Saudiya Arabistoni yarim orolida 2012-yilda aniqlangan bo'lib, yangi betta koronavirusi ekanligi tasdiqlandi. Bu o'lim darajasi 36% bo'lgan nafas yo'llarining og'ir yuqumli kasalligi hisoblanadi. MERS-CoV infeksiyasining aksariyati Yaqin Sharqda kuzatildi, ammo MERS-ning sayohat bilan bog'liq holatlari Yaqin Sharqdan tashqari yana 17 mamlakatda qayd etildi. 2016-yil 3-noyabr holatiga ko'ra 27 mamlakat Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga (JSST) MERS-CoV infeksiyasining laboratoriyada tasdiqlangan 1813 ta holati haqida xabar berdi, ulardan 675 nafarida o'lim holati kuzatildi [41,193,205]. Boshqa bir tadqiqot natijalarida ushbu virus butun dunyo bo'ylab tarqalmaganligi va kasalxonalarda sporadik kasalliklarni keltirib chiqarganligi e'tirof yetilgan[114]. Bu viruslar bir oilaga mansub bo'lsa-da, ularning tegishli kasalliklarining

patogenezi va klinik xususiyatlari o'rtasida bir qancha o'xshashliklar bilan bir qatorda farqlar ham mavjud [129].

MERS va SARS bilan kasallangan aholi orasida o'lim darajasi 2019-yilgi yangi koronavirus kasalligi bilan solishtirganda juda yuqori, ammo yangi virus butun dunyo bo'ylab keng tarqalib, pandemiya kelib chiqishiga sabab bo'ldi [135, 154, 179, 178].

Davolash choralarining samarasizligi, joriy emlashlarning kutilgan natijalarni bermasligi va pandemiya davrida COVID-19 bilan xastalangan bemorlarga maxsus tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishdagi kamchiliklar tufayli bemorlarning kasallikdan tuzalish va asoratlarning oldini olish bo'yicha zudlik bilan bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligi ko'rsatildi [195].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan Hindistonda oilaviy shifokorlar va birlamchi tibbiy yordam muassasalari shifokorlariga COVID-19 bemorlarini davolash vazifasi yuklandi. Sog'liqni saqlash va oila farovonligi vazirligi tomonidan e'lon qilingan kuzatuvlar natijasida, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning 80-85 foizi odatda ixtisoslashtirilgan yordamga muhtoj emasligi va ular uyda yoki COVID-19 ni parvarishlash markazida izolyatsiya qilinishi mumkinligi aytilgan [54]. Bu birlamchi tibbiy yordam muassasalari shifokorlarining COVID-19 yoki boshqa virusli infeksiya belgilari haqida yetarlicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerakligini isbotlab berdi. Agar yaqin kelajakda shunga o'xshash epidemiya sodir bo'lsa, kasallikni erta aniqlash, davolash chora tadbirlari, shifokorlar malakasi va zaxira yotoq fondi tayyor holatda bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Birlamchi tibbiy yordam muassasalari shifokorlari aholi va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasidagi dastlabki aloqa nuqtasi bo'lganligi sababli, ular paydo bo'lishi mumkin bo'lgan epidemiyalarni erta aniqlash, aholini xabardor qilish va tezkor ogohlantirishda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun milliy nazorat tizimini mustahkamlash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda [80].

Koronavirus infeksiyasi keltirib chiqaradigan uchta kasallik (SARS, MERS, COVID-19) namoyon bo'lishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Garchi bu kasalliklarning klinik ko'rinishi o'rtasida ko'plab umumiy xususiyatlar mavjud bo'lsa-da, ushbu kasalliklar o'xshash ko'rinishga ega bo'lganligi sababli, kasallik belgilaridan farqlash ko'pincha qiyinchilik tug'diradi.

SARS

SARS haqida gap ketganda, oilaning umumiy xususiyatlaridan tashqari, bemorlarning 73 foizida suvli diareya, bilan bog'liq bo'lgan holatlar aniqlangan, bu ehtimol og'iz-najas yo'li orqali oshqozon-ichak trakti infeksiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keksa yoshdagi SARS bilan xastalangan bemorlarda anoreksiya ham kuzatish mumkin [182,69] va o'smirlardagi SARS belgilari kattalardagiga yaqin [63,197]. Bir nechta tadqiqotlar natijasiga ko'ra bemorlarning ko'p qismida o'pka auskultatsiyasida shovqinlar va bo'g'ilishlar borligi aniqlangan. Gonkong jamoat salomatligi markazida (GJSM) Peiris va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida, bemorlarning aksariyatida takroriy alomatlar borligi aniqlandi. Tadqiqotning 1-haftasida kasallik isitma va miyalgiya bilan boshlangan bo'lsa, 2-haftada isitma, gipoksiya, diareya va tez-tez takrorlanuvchi ko'krak qafasi siqilishlari paydo bo'lgan. O'RDS (o'pkaning respirator distress sindromi) bemorlarning 20 foizida kasallikning uchinchi haftasida rivojlangan [125, 124,155,93,91].

MERS

MERS kasalligi bilan og'rigan bemorlarda ko'pincha bosh og'rig'i, miyalgiya va diareya kabi alomatlar aniqlangan [70,212,215]. Tadqiqot natijalariga ko'ra 70 bemordan 30 (42,9%) tasida o'tkir buyrak yetishmovchiligi rivojlangan [141,221,216]. MERS bilan kasallangan bemorlarda buyrak bilan bog'liq muammolar ancha yuqoriligi tasdiqlandi. Bundan tashqari MERS infeksiyasi, bemorlarning siydigi orqali ham tarqalishi o'z tasdig'ini topgan [3,220,222]. Chu KH va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra MERS bilan kasallangan bemorlarning 6,3% o'tkir buyrak yetishmovchiligini boshdan kechirgan va buyrak yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarning 91,7% vafot etgan [32].

Klinik xususiyatlar nuqtayi nazaridan, hozircha hech qaysi koronavirus kasalligi "asimptomatik" yoki tashuvchi holatga ega ekanligi aniqlanmagan [200]. COVID-19 kasalligida 6,5 foiz bemorlar kasallikni asimptomatik holatda o'tkazishgan. [145,82,20,12] va kasallangan har besh bemordan faqat uchta isitma borligi bilan ajralib turadi. Tez tez yo'tal SARS da eng ko'p kuzatilgan holatlardan biri hisoblanib, MERS va COVID-19da xam bu belgi kuzatildi. Isitma va yo'tal koronavirus

kasalliklarining eng keng tarqalgan belgilari hisoblanadi. MERS va SARS infeksiyalarida odatda qattiq titroq kuzatilgan, ammo COVID-19 bemorlarining ko'pida bu alomatlar kuzatilmagan. Ko'pincha gripp kasalliklarida uchraydigan miyalgiya va bosh og'rig'i, shuningdek, bir qator koronavirus kasalliklari bilan og'rgan bemorlarda, xususan, MERS da ham kuzatilgan. Ko'ngil aynishi bilan bog'liq holatlar va qusish SARS va MERS da COVID-19 ga qaraganda ko'proq uchragan [145,82,20,12]. Ajablanarlisi shundaki, MERS bilan kasallangan bemorlarda buyrak yetishmovchiligi va undan o'lim holatlari ko'p qayd etilgan [68, 141, 6, 14,10, 78, 165,202, 145, 82, 20, 12, 65, 170, 59].

COVID-19

Inson koronaviruslarining patogenezi asosan virusli zarrachalarning erkin harakati bilan emas, balki o'ziga xos retseptorlar bilan bog'lanishi tufayli rivojlanadi. Insonning angiotenzin 1ni 2 ga aylantiruvchi ferment retseptorlari SARS-CoV ning hujayra maqsadi hisoblanadi [77] MERS-CoV hujayradagi DPP-4 retseptorlari bilan bog'lanadi [137].

Ushbu viruslarning tarqalish darajasi turlicha bo'lib, yetarlicha tadqiqotlar o'tkazilmagani uchun hali to'liq aniqlangani yo'q [191]. Bir nechta tadqiqotlarda bemorlar o'pka auskultatsiyasida shovqinlar yoki bo'g'ilishlar aniqlangan. Bunga qo'shimcha ravishda, COVID-19 bemorlarida "baxtli gipoksiya" deb nomlangan hodisa ham kuzatilgan, bu holat bemorlarda nafas qisilishi yoki nafas olish qiyinlashuvining ko'rinadigan alomatlari haqida xabar beradi [152, 39]. Nafas olish jarayonlaridagi o'zgarishlardan tashqari, virus turli xil oshqozon-ichak, yurak-qon tomir va nevrologik simptomlarni keltirib chiqarishi aniqlangan. Ushbu alomatlarga bosh og'rig'i, darmonsizlik, va hatto miya infarkti va bosh miyaga qon quyulish holatlari haqida xabar berilgan [108, 145, 64]. Oshqozon-ichak kasalliklari, diareya, qusish, qichishish, anoreksiya tez-tez uchraydigan alomatlardan biri bo'lib, ko'pincha gematologik anomaliyalar, jumladan qon ivishining buzilishi, limfopeniya va trombositopeniya bilan izohlanadi [86].

COVID-19 koagulopatiyaga xam olib kelishi mumkin, bu jiddiy asoratdir. Organ yetishmovchiligi uning eng keng tarqalgan asorati bo'lib, keksa yoshdagi aholi vakillari va surunkali kasalliklari bor bemorlarda kuzatilmoqda [71].

Koronaviruslar asosan ko'rshapalaklar sichqonlar, kalamushlar, tovuqlar, itlar, mushuklar, otlar va tuyalar kabi hayvonlar orasida tarqalganligi haqida xabar berilgan [38,16,63]. So'nggi paytlarda virus avvalgi epidemiyaga o'xshash zoonoz yo'l bilan odamlarga yuqishi orqali epidemiya holatini yuzaga chiqarishini tasdiqladi [8,151,158]. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'rshapalaklar keng ko'lamli viruslar, shu jumladan koronavirus uchun asosiy tashuvchi va rezervuar bo'lib, jamiyat ichida to'planadigan ko'p sonli ko'rshapalaklar va ularning uzoq masofalarga sayohat qilish qobiliyati tufayli, hayvonlar va inson o'rtasidagi to'siqni kesib o'tish ehtimoli yuqoriligini tasdiqladi [81].

Inson koronaviruslari birinchi marta 1960-yillarda aniqlangan [194]. Bugungi kunga qadar tadqiqotlar inson koronaviruslarining yetti xil shtammlari haqida xabar bermoqda. To'rtta keng tarqalgan koronavirus shtammlari, jumladan 229E, NL63, OC43 va HKU1 butun dunyo bo'ylab yengil nafas yo'llarining infeksiyalarini keltirib chiqarishi ma'lum [102,162, 77,137]. Ilgari hayvonlar yuqtirishi mumkin bo'lgan koronaviruslar odamlarga ham yuqishi va rivojlanishi uchun moslashishi mumkin, natijada yangi virus shtammi paydo bo'ladi va bu epidemiyaning pandemiyaga aylanish ehtimoli yuqoriligini ko'rsatadi [55].

SARS-CoV va MERS-CoV hayvonlardan odamga yuqishi uchun mavjud to'siqni kesib o'tgan viruslarga misol bo'lib, yoshi katta bemorlarda yanada og'irroq asoratlarni keltirib chiqarishi aniqlandi [31,163,38,192,46,43]. SARS-CoV-2 musbat holatlari soni MERS-CoV va SARS-CoV holatlari sonidan ancha oshib ketgan bo'lsa-da, o'lim darajasi MERS-CoV va SARS-CoV yuqtirgan bemorlarga nisbatan pastroqni tashkil qilmoqda [216,220].

Umuman olganda koronavirus infeksiyalari, gripp va OIV kabi RNK saqlovchi viruslar orasida juda yuqori mutatsiya tezligiga ega ekanligi ma'lum [47,128,150]. Bundan tashqari, tadqiqotlar SARS-CoV-2 genomi ketma-ketligining Yunnan shahridagi ko'rshapalaklardan to'plangan RaTG13 (96,2% o'ziga xoslik) SARSga o'xshashligi haqida xabar berdi. Shuning uchun ko'rshapalaklarni SARS-CoV-2 ning asosiy manbai sifatida taklif qilindi. Xuanan dengiz mahsulotlari bozorida sotiladigan hayvonlarning xilma-xilligi tufayli tadqiqotchilar ilonlar, pangolinlar, qushlar va boshqa sutemizuvchilar

kabi oraliq hayvonlar ham hozirgi COVID-19 epidemiyasining paydo bo'lishida rol o'ynagan bo'lishi mumkinligini taxmin qilmoqdalar [88, 25].

Xiao va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari [187] SARS-CoV-2 ning odamlarga yuqishi uchun oraliq xo'jayin har doim mavjud bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Tadqiqotda, shuningdek, Xitoy va Malaya yovvoyi pangolinlari SARS-CoV-2 ga o'xshash koronaviruslar uchun sinovdan o'tkazilgani va ularning aksariyati ijobiy natija bergani haqida xabar berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, batafsil tahlildan so'ng, Pangolin-Cov ning spayk oqsilidagi yagona retseptorlarni bog'lovchi domen (RBD), SARS-CoV-2 dan faqat bitta aminokislotada ozgina farq borligi aniqlandi. Ushbu ma'lumotlar, SARS-CoV-2 odamlarga yuqishdan oldin Pangolin-CoV va Bat-nCoV o'rtasidagi virusli rekombinatsiyadan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi [187].

Garchi ko'plab hisobotlarda Viruslarning aerozollar orqali yuqishi ta'kidlangan bo'lsa-da, ushbu pandemiya davomida virusni yuqtirishning qo'shimcha shakllari mavjudligi isbotlandi. Yaqinda Chan va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda [25] SARS-CoV-2 bilan kasallangan olti nafar bemordan iborat oilaning kasallik tarixi, epidemiologik, klinik, radiologik va mikrobiologik tahlillari haqida xabar berdi. Olti oila a'zosidan, Vuxan shahriga bormagan va oila a'zolari bilan yaqin aloqada bo'lganidan keyin SARS-CoV-2 ni yuqtirib olgan bemor COVID-19ning odamdan odamga yuqishining birinchi belgilaridan biri edi. [25]. Hozirgi vaqtda virusning odamdan odamga yuqishining asosiy shakli infeksiyalangan shaxs tomonidan chiqarilgan nafas olish tomchilari orqali sodir bo'lishi e'tirof etilgan; demak, yo'talish va aksirish SARS-CoV-2 ni havo orqali tarqalishini ta'minlab beradi va bu kasal bo'lmagan shaxslarni kasallik bilan yuqtirish xavfini oshiradi [22,7]. Bundan tashqari, ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, SARS-CoV-2 yuqishi ifloslangan buyum va jihozlar bilan kontaktda bo'lish natijasida ham sodir bo'lishi mumkin [18].

Kasalxonalar SARS-CoV-2 ning ikkilamchi yuqish manbalaridan biri ekanligi ma'lum, chunki ular ko'p sonli virus bilan infeksiyalangan bemorlarni qabul qiladi. Pandemiya holatida, COVID-19 bemorlari davolanadigan shifoxonalarda virusni yuqtirish holatlari qayd etilgan. Santarpia va boshqalar tomonidan yaqinda o'tkazilgan

tadqiqotda [144], SARS-CoV-2 bilan kasallangan bemorlarning palatalaridan sirt namunalari masalan, hojatxona obyektlari, shuningdek, havo namunalari virusli RNKni isbotlash uchun to'plangan va SARS-CoV-2 uchun ijobiy sinovdan o'tgani aniqlandi [18,144]. Ushbu tadqiqotda olingan turli xil namunalar orasida havodagi eng yuqori virusli konsentratsiyalar, burun kanali orqali kislorod olayotgan bemorlardan kelib chiqqanligi aniqlandi [144]. Yaqinda SARS-CoV-2 virusi infeksiyalangan bemorlarning najas namunalari aniqlanganligi ta'kidlandi, bu SARS-CoV-2 ning ovqat hazm qilish tizimida ko'payish qobiliyatini va og'iz-najas orqali yuqish yo'lini mavjudligini xam ko'rsatdi. [195,27,186,30].

Kasalxona reanimatsiya bo'limlarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari (ITB) COVID-19 bilan kasallanib reanimatsiya bo'limiga tushgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keldi. Sog'liqni saqlashga bo'lgan talabni qondirishning shoshilinchligi bilan bir qatorda, virusning COVID-19 reanimatsiya bemorlaridan boshqa bemorlar va shifoxona amaliyotchilariga yuqishini minimallashtirish yana bir muammo bo'ldi. Buni bartaraf etish uchun bir qancha choratadbirlar ishlab chiqildi va reanimatsiya qoidalariga, jumladan, reanimatsiya xonasi sig'imi, xodimlarning ish yuki va infeksiyani oldini olish uchun infratuzilmani boshqarishda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. COVID-19dan og'ir kasal bo'lgan bemorlarni klinik boshqarish bilan yuqish ehtimolini kamaytirish uchun bir nechta bemorlar bilan aloqa qiladigan bir marta ishlatilmaydigan narsalarni, masalan, ventilyatorlar va boshqa tibbiy asbob uskunalarini hamda reanimatsiya yotoqlarini dezinfeksiyalashda yetarlicha ehtiyot bo'lishni talab qiladi [130].

Bemor homilador ayoldan bolaga virusning yuqish xavfi o'rganilganda, to'qqizta yangi tug'ilgan chaqaloqning barchasi SARS-CoV-2 uchun manfiy natija berdi. Bundan tashqari, bemorlardan to'plangan ona suti namunalari, amniotik suyuqlikda ham virus topilmadi [26]. Hozirgi vaqtda virusning aholi orasida tez tarqalishiga olib keladigan sharoitlar, ayniqsa biologik (virus yuki) yoki ijtimoiy omillarning (masalan, kontaktlar soni) roli to'liq tavsiflanmagan.

Ko'rinib turibdiki virusning aholi orasida tez tarqalishiga olib keladigan hodisalarning oldini olish kasallikning tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Virusning tez

sur'atlarda va keng tarqalishida kasallikning o'rtacha inkubatsiya davri muhim hisoblanadi. Olib borilgan ko'pgina tadqiqotlar natijasiga ko'ra kasallikning o'rtacha inkubatsiya davri 5-7 kun, barcha infeksiyalarning 99% 2 kundan 14 kungacha sodir bo'ladi [92]. Infeksiyalarning o'rtacha ketma-ket oralig'i dastlab 7-6 kun deb baholangan, keyinroq kuzatuvlar bu ko'rsatkichni 4 kunga qisqarganligini ko'rsatdi [96,117,44].

Ko'pgina mamlakatlarda kasallanishlar soni 20 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan yosh guruhida eng yuqori deb hisoblanmoqda. Xitoy, Koreya, Italiya va Germaniyadagi epidemiya turlicha ko'rinishda namoyon bo'lib, barcha epidemiyalarda kasallangan bolalar soni (0-9 yosh) kichik bo'lgan [140,159,75]. Germaniyada epidemiyaning birinchi to'loqinidagi yoshga xos kasallanish darajasi 80 yoshdan oshgan yosh guruhida eng yuqori, boshlang'ich kasallanishni va epidemiyaning keyingi bosqichlarida yoshlarda ko'proq kasallanishni ko'rsatdi [140].

Sog'liqni saqlash muassasalarida sog'liqni saqlash xodimlariga yuqish birinchi marta Uxan epidemiyasining dastlabki davrida qayd etilgan [159]. Keyinchalik avj olish davrida ko'p infeksiyalar sog'liqni saqlash bilan bog'liq emasligi, balki jamiyat tomonidan yuqtirish sifatida tasniflangan. Barcha holatlarda kasallangan sog'liqni saqlash xodimlarining darajasi Xitoyda 2,7%, Italiyada 11% va Germaniyada 5,8% ni tashkil etdi [140,181,75]. Italiya va Ispaniyada olib borilgan seroepidemiologik tadqiqotlarda SARS-CoV-2 infeksiyasining seroprevalentligi boshqa kasblardagi ishchilarga nisbatan taxminan ikki baravar ko'p bo'lgan (Italiya 5,3% 2,8%, Ispaniya 10,2% 4,8%, Buyuk Britaniya 11,7% 5,3%).) [174,74]. Yaxshiyamki, bu guruhda og'ir holatlar va asoratlar soni va tezligi, aksincha, pastdir [140,181,75].

1.2. O'zbekistonda COVID-19 kasalligi tarqalganligining mavsumiylik xususiyatlari

Mamlakatimizda 04.08.2022-yilga qadar 243266 nafar bemor qayd etilgan, shundan vafot etganlar soni 1637 nafarni tashkil qilmoqda. Koronavirus infeksiyasining birinchi holati 15-mart kuni Fransiyadan kelgan ayolda kuzatilgan, shundan so'ng bir oy ichida statsionar sharoitda 1070 nafar, uy sharoitida davolangan 5897 nafar shaxsda tibbiy kuzatuv olib borilgan va ularning 2122 nafari karantinga olingan. 2020-yil 15-martdan boshlab O'zbekistonda chet eldan keluvchilar uchun karantin tadbirlari joriy etildi.

Bugungi kunga qadar yurtimizdagi epidemiologik holat biroz barqarorlashdi. Ammo bu degani hali biz bu virusdan butunlay xalos bo'ldik degani emas, olingan rasmiy statistik tahlillarga asosan Respublikamiz hududlarida jumladan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlaridagi qayd etilgan bemorlar jami kasallanganlarning 182767 (76,4±0,11%) nafarini tashkil qilayotgan bo'lsa, kasallikdan davolanish ko'rsatkichi Respublika hududlari bo'yicha 99±0,05% ni tashkil qilmoqda (13.06.2022) (1.1-jadval).

1.1-jadval

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2022 y 13-iyun holatiga).

	Hududlar	Jami qayd etilganlar		Jami davolanganlar		Jami davolanayotganlar	
		Abs.son	%	Abs.son	%	Abs.son	%
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8609	3,60	8588	99	21	0,009
	Andijon viloyati	7714	3,22	7712	99	2	0,001
	Buxoro viloyati	5829	2,44	5820	99	9	0,004
	Jizzax viloyati	7710	3,22	7699	99	11	0,005
	Qashqadaryo viloyati	4883	2,04	4861	99	22	0,009
	Navoiy viloyati	2780	1,16	2774	99	6	0,003
	Namangan viloyati	7785	3,25	7776	99	9	0,004
	Samarqand viloyati	16675	6,97	16663	99	12	0,005
	Sirdaryo viloyati	4766	1,99	4760	99	6	0,003
	Surxondaryo viloyati	8076	3,38	8065	99	11	0,005
	Farg'ona viloyati	11782	4,92	11774	99	8	0,003
	Xorazm viloyati	6437	2,69	6434	99	3	0,001
	Toshkent viloyati	39933	16,69	39412	99	521	0,218
	Toshkent shahri	106301	44,43	105119	99	1182	0,494
	Jami	239280	100	237457	99	1823	0,762

O'zbekistonda koronavirus infeksiyasining epidemiologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Olib borilayotgan epidemiyaga qarshi (karantin) tadbirlar sababli

epidemiologik o'sish to'liqsimon tusga ega va Yevropa mintaqasidan, hamda umuman dunyo mamlakatlaridan birmuncha farq qiladi.

Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasidan ma'lumki infeksiyaning keng miqyosda va tezlik bilan aholi orasida tarqalishi aholi qatlamining zich joylashganligiga xam bog'liqdir. Respublikamizda aholi zichligi 2021-yil boshiga (1kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni) 75,5 ni tashkil qilgan bo'lsa Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 7699,6 ni, Andijon viloyatida 727,4 ni, Namangan viloyatida 377,8 ni tashkil qilmoqda (1.2-jadval). COVID-19 dan kasallanish ko'rsatkichi yurtimizda xar 100 ming aholiga 226,8 ni tashkil qilayotgan bo'lsa, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 1750,7 ni, Toshkent viloyatida 523,7, Namanganda 93,2, Andijonda 68,7 ni tashkil qilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki COVID-19 ning aholi orasida tarqalganligi va zichligi orasida to'g'ri kuchli korrelyatsion bog'liqlik borligi aniqlandi ($r=0,87\pm0,02$).

1.2-jadval

Mamlakatimizda COVID-19 kasalligi tarqalganligiga aholi zichligining bog'liqligi (2020y)

Hududlar	Aholi zichligi (kv.km)	Kasallanish (100 ming aholiga)
Toshkent shahri	7699.6	1750.7
Toshkent viloyati	192.9	523.7
Namangan viloyati	377.8	93.2
Andijon viloyati	727,4	68.7
Samarqand viloyati	231.2	63.1
Qashqadaryo viloyati	114.8	48.8
Surxondaryo viloyati.	130.8	40.8
Respublika bo'yicha	75.5	226.8

COVID-19 bilan kasallanish orasidagi farq faqatgina hududlargagina xos bo'lmay, balki kasalliklarni aniqlash va ro'yxatga olish hamda ularni hisoblash usullariga, shuningdek davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat olib borayotgan, kadrlar kasb mahoratiga, tibbiy xizmatning ommabopligi va boshqa omillarga ham bog'liqdir.

Yurtimizda 2020-yil may oyining o'rtasiga qadar kuzatilgan barcha aniqlangan holatlar ayrim hududlardagina qayd etildi. Mayning o'rtasidan infeksiya umumiy aholi orasida keng tarqala boshladi.

Yevropa mintaqasi davlatlarida COVID-19 dan yangi kasallanish holatlarning keskin ortishi kuzatilgan bo'lsa O'zbekistonda ushbu kasallikni aholi orasida ko'payishi asta-sekinlik bilan kuzatildi. Joriy etilgan karantin tadbirlar epidemiologik jarayonning boshlanishida kasallanish sonini keskin ortishini oldini olish imkoniyatini berganiga qaramay, hanuzgacha katta miqdorda kasallikka moyil aholi saqlanib qolayotganligini kuzatmoqdamiz.

Koronavirus bilan kasallanish ma'lum mavsumiy sikllarning mavjudligi bilan tavsiflanadi [154]. Biroq, asosiy iqlimiy xususiyatlari bilan Yevropadan ajralib turadigan Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari, xususan O'zbekiston uchun COVID-19 bilan kasallanish mavsumiy o'sish vaqtlarining ilmiy asoslangan tarifi haligacha mavjud emas. Bu mavsumiy o'sishni baholash profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish yoki yengillashtirish uchun zarur hisoblanadi.

Yevropa mintaqasida kundalik qayd etiluvchi yangi holatlarning kamayish fonida O'zbekistonda iyun boshidan karantin tadbirlari yumshatilganidan so'ng, aholining jamoat joylarida, jamoat transportlari, umumiy ovqatlanish shaxobchalarida, to'y marosimlarida JSST ekspertlari, xamda Respublika maxsus komissiyasi tomonidan joriy qilingan karantinga qarshi kurashish chora-tadbirlari va ular tomonidan berilgan tavsiyalarga rioya qilinmaganligini, aholining tibbiy niqoblardan, gigiyenik-antiseptik vositalardan muntazam foydalanmaganliklaridan va jamoat joylarida oraliq masofani saqlamaganliklari natijasida kasallanish keskin ko'payib ketishiga sabab bo'ldi, bu esa sog'liqni saqlash tizimida katta qiyinchiliklar tug'ilishiga olib keldi.


Bizning natijalar kasallanishning eng yuqori darajasi yoz va kuz oylariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Shu vaqtgacha (2020y dekabr) jami kasallanganlarning (76907)

62,8±0,17% (48 322 ta) ushbu davrga to'g'ri keldi Shuning uchun xam bu davrda kasallanishning epidemiologik nazorati va laborator monitoringini kuchaytirish, shuningdek, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni keng ko'lamda olib borish lozimligi belgilab berildi.

O'zbekistonda 2020-yilning iyun-iyul oylari kelib qisman ijobiy natijaga erishilganligi tufayli karantin tadbirlari biroz yumshatilgandi, natijada O'zbekistonda avgust-sentyabr oylaridan boshlab yangi holatlar sonining takroran oshishi kuzatildi, mazkur tendensiya Yevropa mintaqasida ham global masshtabda kuzatildi. Bunday takroriy o'sish ko'rsatkichini olimlar kasallanishning "ikkinchi to'lqini" deb ta'riflashdi.

Koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq dunyodagi vaziyat 2021-yilga kelib xam barqarorlashmadi. Bu davrga kelib virusning alfa, betta, gamma, delta, lyumbda kabi yangi shtammlari paydo bo'la boshladi. Bu COVID-19 kasalligining dunyo bo'yicha tarqalishi, kasallikni og'irroq darajada kechishi va o'lim holatlarini yanada oshishiga olib keldi. Shu bois kasallik tarqalishining kuchayishi bilan dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida koronavirus infeksiyasiga qarshi vaksina yaratish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borildi. Ilmiy izlanishlar natijasi o'laroq bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Hindistonning yirik farmatsevtika kompaniyalari va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan koronavirusga qarshi ishlab chiqilgan o'n to'rtta vaksina JSSTda tasdiqdan o'tkazildi.

Yurtimizda xam 2021-yil aprel oyiga kelib kasallanishlar soni sezilarli darajada osha boshladi va yilning 3-choragiga (iyul, avgust, sentyabr) kelib o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bu ko'rsatkich shu yildagi (112331nafar) jami kasallanish ko'rsatkichlarining 56,3±0,14% ni tashkil qilmoqda (1.1-rasm).



1.1-rasm. Yurtimizda COVID-19 kasalligining mavsumiy dinamikasi (2020-2021y)


O'tgan 2020-yildagi eng yuqori kasallanish ko'rsatkichi xam aynan yilning 3-choragiga (iyul, avgust, sentyabr) to'g'ri kelgan edi. Shunday qilib ushbu ma'lumotlar bizga, O'zbekistonda so'nggi 2 yilda COVID-19 kasalligining epidemik mavsumi yilning 3-choragida (iyul, avgust, sentyabr) o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilayotganini tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi PF-5537-son "O'zbekiston Respublikasiga koronavirusning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha Respublika Maxsus Komissiyasini tashkil etish" farmoyishiga binoan tashkil etilgan maxsus komissiyasi hamda hukumat tomonidan aholini koronavirusga qarshi ommaviy emlash bo'yicha qator chora-tadbirlar bajarilmoqda.

Mamlakatimizda 04.08.2020-yilda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, kasallanish holatlari yanada avj olib ketish ehtimoliy belgilarini o'z vaqtida aniqlash va xavfini kamaytirish hamda bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishga qaratilgan profilaktik va epidemiyaga qarshi kechiktirib bo'lmaydigan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 461-son "Koronavirus infeksiyasini yuqtirgan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilindi.

COVID-19 ga qarshi epidemiologik, sanitar-gigiyenik xamda davolashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish natijasida yangi kasallanish holatlarining keskin kamayishi kuzatildi. Respublika shifoxonalarida ushbu kasallikdan davolanganlar va

davolanayotganlar soni yilning 3 choragida (iyul, avgust, sentyabr) keskin ko‘tarilganini kuzatish mumkin, jumladan COVID-19 kasalligidan 2020-yilda davolanigan jami (74626 nafar) bemorlardan yilning 3 choragida tuzalganlar ulushi $64,2 \pm 0,17, \%$ ni tashkil qilgan bo‘lsa, davolashga qaratilgan yangi bayonnomalar ishlab chiqilishi, xamda davolash choralarining samaradorligini oshganligi sababli ushbu ko‘rsatkich oktyabr-noyabr oyida $94,2 \pm 0,08 \%$ ni, yilning oxiriga kelib esa $98,1 \pm 0,05 \%$ ni tashkil qildi (1.2-rasm).



1.2-rasm. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarning oylar bo‘yicha davolanish darajasi (2020-2021 y)

Mamlakatimiz aholisini koronavirusga qarshi emlash tadbirlari koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish va vaksina sotib olish xarajatlariga yo‘naltirilgan 3 trillion so‘m mablag‘ hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.


Aholini koronavirusga qarshi ommaviy emlash tadbirlari birinchi galda xavf osti guruhiga mansub aholi qatlamini emlash kerakligi inobatga olindi va emlash tadbirlarini bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirish tartibi 2021-yilning 1-aprel kunidan boshlandi. Birinchi navbatda emlanadigan aholi qatlamlariga; 65 yoshdan 85 va undan yuqori yoshdagi shaxslar, tibbiyot xodimlari, surunkali kasalliklari bo‘lgan shaxslar (18-65 yosh), maktab o‘qituvchilari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari, Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari kiritildi. Bu olib borilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar samarasi o‘laroq yilning oktyabr oyiga kelib kasallanish

	15-19 yosh	20,1±1,5	13,8±1,6	1,14	
	20-24 yosh	22,1±1,8	25,0±1,9	1,12	

	25-29 yosh	25,3±2,0	34,0±2,1	1,12	
	30 va undan katta	29,3±1,5	26,0±2,0	1,12	
Tamaki chekish (kuniga)	chekmayman	27,5±1,7	20,6±2,0	0,75	2,0
	5 dona	12,3±1,3	13,1±1,5	0,92	
	10 dona	26,0±1,8	23,2±1,9	1,13	
	20 dona	26,1±1,9	37,1±2,0	1,1	
	20 va undan ko'p	8,1±1,1	6,0±1,1	1,5	
Qaysi yoshdan chekishni boshlagan	10-14 yosh	6,1±1,0	8,0±1,2	0,75	2,1
	15-19 yosh	34,2±1,9	28,1±2,0	1,21	
	20-24 yosh	42,1±2,0	37,9±2,2	1,1	
	25-29 yosh	10,0±1,2	12,0±1,5	0,83	
	30 va undan katta	7,6±1,1	14,0±1,6	0,57	

Tibbiy-biologik omillar

Aholining salomatlik holati, hayot sifati, uning yaxshilanishi o'zining tibbiy faolligi, o'z salomatligiga bo'lgan munosabati, tibbiy xizmatga e'tibori va tibbiy madaniyatiga bog'liq. Tadqiqotimiz natijalari, bemorlarning 67±1,9% (2/3 qismidan ko'prog'i) tibbiyotga oid adabiyotlarni umuman o'qimasligini ko'rsatdi. 11±1,3% bemorlar maxsus tibbiy adabiyotlarni, 10±1,2% ommabop broshyuralarni mutolaa qilishini, 12±1,3% esa tibbiy jurnallarni o'qishini ta'kidlashgan.

O'tkir va surunkali kasalliklar bilan shifokorga murojaat hodisa guruhiga nisbatan nazorat guruhida 2 barobar yuqoriligini, surunkali kasalliklar profilaktikasi haqida tushunchaga ega emasligi esa 3,5 barobar yuqori ekanligini ko'rsatdi. Ushbu omillarga

ega bo'lmagan shaxslarning COVID-19 kasalligiga chalinish ehtimolining yuqoriligini va kasallikni kelib chiqishiga kuchli salbiy tasir etishi aniqlandi ($r=0,34$).

Oxirgi 2-3 yil davomida profilaktik tibbiy ko'riklardan to'liq o'tganlik darajasi hodisa guruhi nazorat guruhidan 3 barobar pastligi tasdiqlandi ($p<0,001$).

Organizmdagi mavjud surunkali kasalliklar boshqa o'tkir kasalliklarning kelib chiqishiga va kechishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kasallikning kechishini og'irlashtiradi, bemorlarning $60,4\pm1,8\%$ da, nazorat guruhdagilarning $32,7\pm1,9\%$ ida surunkali yondosh kasalliklar borligi aniqlangan. Surunkali kasalliklari bor shaxslarda kasallik surunkali kasalliklar yo'q shaxslarga nisbatan COVID-19 ga chalinish ehtimolligi 3,1-marta yuqori bo'lib uning og'ir kechishi qayd etildi ($R= 3,1$) (4.3-jadval).

So'rovnomaning keyingi 2-3 yil ichida profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi savoliga bemorlarning $24,0\pm1,7\%$ tibbiy ko'rikdan umuman o'tmaganligini tan oldi. Bu ko'rsatkich nazorat guruhida $11,1\pm1,3\%$ ni tashkil qildi.

3.3-jadval

COVID-19 ning tarqalganligida biologik omillarning ta'siri va aholining tibbiy faolligining ahamiyati

Omillar	Omillar ar grada tsiyasi	Asosiy guruh (%) n=600 (R1)	Nazorat guruh (%) n=600 (R2)	Abso lyut xavf (N)	Nisbiy xavf (R)
Yosh	19 yoshgacha	3,10 $\pm 0,7$	6,2 $\pm 1,1$	0,5	4,0
	20-29	12,4 $\pm 1,3$	21,4 $\pm 1,8$	0,58	
	30-39	16,2 $\pm 1,5$	22,4 $\pm 1,9$	0,72	
	40-49	8,4 $\pm 1,1$	16,8 $\pm 1,7$	0,5	
	50-59	23,2 $\pm 1,7$	14,6 $\pm 1,6$	1,59	
	60-69	25,0 $\pm 1,7$	12,7 $\pm 1,5$	1,97	

	70 yosh va <	11,7 ±1,3	5,9± 1,1	1,98	
Jins	Erkaklar	43,0 ±2,2	45,0 ±2,2	0,96	1,0
	Ayollar	57,0 ±2,2	55,0 ±2,2	1,04	
Surunkali kasalliklar	mavjud	60,4 ±1,8	32,7 ±1,9	1,84	3,1
	Mavjud emas	39,6 ±1,8	67,3 ±1,9	0,58	
Tana vazni	Me'yorida	40,4 ±1,7	65,6 ±2,1	0,61	2,83
	Me'yoridan yuqori	59,6 ±1,7	34,4 ±1,9	1,73	
O'zingizni kasal his qilsangiz qanday yo'l tutasiz	darhol vrachga muroj aat qilaman	23,2 ±1,7	32,0 ±2,1	0,72	1,95
	mustaqil davolanaman	43,8 ±2,0	31,0 ±2,1	1,41	
	tanishlar va qarindoshlar maslahatida foydalanaman.	14,1 ±1,4	12,0 ±1,5	1,16	
	tez tibbiy yordamga muroj aat	18,9 ±1,6	25,0 ±1,9	0,76	

	qilama n				
--	-------------	--	--	--	--

Bemorlarning yoshi COVID-19 kasalligi bilan kasallanish ehtimolini va kasallikning kechish darajalarini og'irlashtiradi Xususan, 70 yoshdan keyin kasallikni yuqtirish ehtimoli va kasallangan bemorlarning kasallikni o'ta og'ir darajalarda o'tkazishi 3,96-martaga ortishi qayd etildi ($R = 3,96$, $p < 0,01$)(3.3-jadval).

Tana vaznining me'yordan yuqoriligi, har qanday kasalliklarning kechishini og'irlashtiradi, so'rovnoma asosida asosiy va nazorat guruhdagilarning tana vazni tahlil qilindi unga ko'ra bemorlarning $59,6 \pm 1,7\%$ ortiqcha vaznga ega, nazorat guruhdagilarning $34,4 \pm 1,9\%$ ida tana vaznining ortiqcha ekanligi qayd etilgan. Tana vazni me'yordan ortiqcha bo'lgan shaxslarda tana vazni normal bo'lgan shaxslarga nisbatan koronavirus kasalligiga chalinish ehtimoli 2,83-marta ko'proq bo'lib uning ushbu shaxslarda kasallikning og'ir kechishi aniqlandi ($R=2,83$ $p < 0,001$).

O'tmishda inson koronaviruslari (HCoV) nisbatan zararsiz nafas yo'llarining patogenlari bo'lishgan. Ammo og'ir nafas olish sindromi (SARS) va yaqin sharq respirator sindromi (MERS) patogenlari paydo bo'lishi, nafas yo'llari infeksiyalari butun dunyo olimlarining e'tiborini o'ziga qaratdi [177]. Garchi HcoVlar bir necha o'n yillar oldin aniqlangan va ularning klinik ahamiyati, epidemiyani keltirib chiqarish ehtimoli mavjud bo'lsa-da SARS hamda MERS avj olmaguncha ushbu viruslar kasallik qo'zg'atuvchilari sifatida tan olinmagan [41, 193, 43, 85, 126, 48, 89, 97].

So'nggi yillarda koronavirus bilan bog'liq kuzatilgan jarayonlar ehtimol epidemiologik vaziyatning murakkablashishi natijasi emas, balki yangi virusologik tadqiqot usullarining paydo bo'lish natijasidir, ular yordamida tabiatda sodir bo'ladigan ba'zi jarayonlar va insoniyat jamiyatiga tarqalishi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ammo pandemiyani keltirib chiqaradigan viruslarning evolyutsiya jarayonini oldindan bashorat qilib bo'lmasa-da ularning kelib chiqishi va rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni va ularning tasir kuchini zamonaviy statistik usullar yordamida aniqlash mumkin .

3.2. COVID-19 kasalligi kelib chiqishiga sabab bo'luvchi xavf omillarini prognozlash va uning profilaktikasiga tizimli yondashuv

Mamlakatimizda sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida kasallikka olib keluvchi xavf omillarini aniqlash, baholash va kasallikka tashxis qo'yish birmuncha qiyinchilik tug'dirmoqda. Shuning uchun ham koronavirusni barvaqt aniqlash, asoratlarni oldini olishning asosiy omillaridan biri aholini, bemorlarni nazorat qilishda individual differensiallashgan yondashuvning mavjud emasligidir.

Kasallikka olib keluvchi xavf omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda maxsus ishlab chiqilgan matematik modeldan foydalanish ijobiy samarani beradi. Bu quyidagi keltirilgan baholash jadvalida ifodalangan (4.4-jadval). Kasallikka olib keluvchi xavf omillari juda ko'p. Biroq ulardan har birining organizmga ta'sirini baholash va uni prognozlash tibbiyot xodimidan birmuncha ko'p vaqtni talab qiladi. Bu esa ayniqsa BTSYO muassasalarida ishlovchi tibbiyot xodimlari va infeksiyonistlar uchun qiyinchilik tug'diradi.

COVID-19 kasalligi profilaktikasida prognostik jadvaldan foydalanishdan asosiy maqsad – bemorlarda kasallikka sabab bo'luvchi eng asosiy xavf omillarini ajratib olish va prognostik jadval tuzishdan iboratdir. Biz L.A.Ponomaryova va B.Mamatqulov (2009 y), B.Mamatqulov (2013) lar tomonidan ishlab chiqilgan oddiy va ishonchli usulidan foydalanishni lozim topdik.

Xavf omillarining ichidan eng yuqori vaznga ega bo'lgan 10 ta xavf omillari ajratib olindi (3.4-jadval).

3.4-jadval

COVID-19 kasalligi kelib chiqishiga ta'sir etuvchi yetakchi xavf omillari

№	Xavf omillari	Vazn koef-ti (R)
1	Yashash sharoiti (qoniqarsiz)	4,1
2	Yosh tarkibi (70 yosh va <)	4,0
3	Jamoat joylarida sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilish (bir martalik tibbiy niqob, oraliq masofani saqlash, antiseptik vositalar), (amal qilmadi)	3,6
4	Toza havoda sayr qilish, jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish	3,3

5	Surunkali kasalliklarning mavjudligi (mavjud)	3,1
6	Spirтли ichimlik iste'moli (erta yoshdan)	3,0
7	Oiladagi ruhiy holat	3,0
8	Tana vazni (me'yoridan yuqori)	2,83
9	Oqilona ovqatlanish	2,7
10	Tamaki iste'mol qilish (kuniga 20 donadan ko'p)	2,1

Tadqiqotlarning natijalarini chuqur tahlil etish, klinik epidemiologiyaning analitik tadqiqot usullari: xavf omillarini ajratib olish uchun kasalliklarning tarqalganligi, imkoniyatlar nisbati va kasallikning yetakchi xavf omillari aniqlandi va ularning istiqbolini aniqlash va baholash jadvali ishlab chiqildi (3.5-jadval).

3.5-jadval

COVID-19 kasalligining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi xavf omillari darajasini kompleks baholovchi prognostik jadval.

№	Biologik omillar	Omillar gradatsiyasi	Prognostik ko'rsatkich (X)	Nisbiy xavf (R)
1	Yosh tarkibi	19 yoshgacha	2	4,0
		20-29	2,32	
		30-39	2,88	
		40-49	2,4	
		50-59	6,36	
		60-69	7,88	
		70 yosh va <	7,92	
2	Tana vazni	Me'yorida	1,73	2,83
		Me'yoridan yuqori	4,9	
		Mavjud	5,7	3,1

3	Surunkali kasalliklarning mavjudligi	Mavjud emas	1,8	
Sanitariya gigiyenik qoidalarga rioya qilishi va kasallik belgilari uchrashi bilan bogʻliq omillar				
4	Jamoat joylarida sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilish (bir martalik tibbiy niqob, oraliq masofani saqlash, antiseptik vositalar)?	Amal qildi	1,9	3,6
		Amal qilmadi	7	
Yashash sharoiti, ovqatlanish va dam olish bilan bogʻliq omillar				
5	Yashash sharoiti	qoniqarsiz	14,6	4,1
		qoniqarli	3,9	
		yaxshi	3,5	
		juda yaxshi	4,1	
6	Oqilona ovqatlanish rejimi	Rioya qilinadi	1,48	2,7
		Rioya qilinmaydi	4,05	
7	Oiladagi ruhiy holat	Yaxshi	2,7	3,0
		Yomon	8,1	
8	Toza havoda sayr, jismoniy mashgʻulotlar bilan shugʻullanish	yoʻq	5,28	3,3
		1 soat	2,4	
		2 soat	1,58	

		3 soat va undan ko‘p	2	
Zararli odatlar				
9	Tamaki chekish	Chekmayman	1,5	2,0
		Kuniga 5 donagacha	1,84	
		Kuniga 10 donagacha	2,26	
		Kuniga 20 donagacha	2,2	
		20 dona va undan ko‘p	3,0	
10	Spirтли ichimlik iste’moli	Xar kuni	2,0	1,74
		Haftasiga 4-marta	1,74	
		Haftasiga 2-3 marta	1,48	
		Alohida holatlarda	1,14	
Xavf qiymatlari				
	Xavfning eng kichik qiymati (X)	$\sum X_n$	19,33	
	Xavfning eng katta qiymati (X)	$\sum X_n$	62,55	

Tibbiyot xodimi tomonidan mijozning anamnez ma’lumotlari yig‘ilib, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgach, aniqlangan omillar mazkur jadvalda belgilanib olinadi. Shundan so‘ng barcha omillarga mos keladigan qiymatlar yig‘indisi olinadi. Demak, olingan 10 ta ijtimoiy-gigiyenik va tibbiy biologik omillarning koronavirus bilan kasallanish ko‘rsatkichlariga tasir diapazoni 19,33-62,55 chegaralarini tashkil qilar ekan. Shunday qilib me’yoriy integratsion (prognostik) ko‘rsatkich qancha katta bo‘lsa, kompleks olingan omillarning tasir kuchi shuncha yuqori va uning aksi, prognostik ko‘rsatkich qancha kichik bo‘lsa, omillarning tasir kuchi shuncha past bo‘ladi.

Bemorlar uchun xavf guruhlari va uning diapazonlari.

Xavflilik darajasi	Xavflilik o'lchami	Xavf guruhi (istiqbol-prognoz)
Xavfning eng kichik darajasi	19,33-32,3	yaxshi istiqbolli guruh
Xavfning o'rtacha darajasi	32,3-45,26	diqqatni talab qiladigan guruh
Xavfning eng yuqori darajasi	45,26-62,55	yomon istiqbolli guruh.
Xavf chegarasi	19,33-62,55	

Tadqiqotda xavf chegaralarini 3 intervalli guruhga bo'ldik: xavfning eng kichik darajasi (19,33-32,3), xavfning o'rtacha darajasi (32,3-45,26), xavfning eng yuqori darajasi (45,26-62,55) (3.6-jadval). Yuqoridagilarga mos holda istiqbol (prognoz) ni 3 guruhga bo'ldik: yaxshi istiqbolli guruh, diqqatni talab qiladigan guruh, yomon istiqbolli guruh. Ushbu jadvallardan sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida shifokorlar tomonidan foydalanish kasallik boshlanishidan oldin xavf guruhlari aniqlash yoki kasallik kelib chiqqandan so'ng uning og'irlik darajasiga qarab bemorlarni guruhlarga ajratish, ular orasida tizimli yondashuv asosida individual, differentsiallashtirilgan maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Bundan tashqari kasallikning oldini olish, aholining birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalariga murojaatlari davrida ularning orasidan kasallikka moyil-xavf omillari mavjud aholi guruhini ajratib olish, kasallikni barvaqt aniqlash, uni o'z vaqtida tashhislash, ular orasida olib boriladigan birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktikaning samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy tizimli tahlil va tizimli yondashuv tamoyillariga asoslangan holda sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inlari uchun kasallikning tibbiy, ijtimoiy samaradorligini oshirish, kasallik oqibatida sodir bo'ladigan iqtisodiy zararni kamaytirish maqsadida kompleks reja-dastur tuzildi va elektron dasturiy ta'minot yaratildi.

Birinchi navbatda BTSYO muassasalaridagi shifokorlar koronavirus kasalligi belgilarini barvaqt aniqlash, tashhislash, davolash, profilaktikasi bo'yicha o'z bilimlarini muntazam ravishda faol oshirib boradi.

OSH (oila shifokori) xavf guruhiga kiruvchi shaxslar va bemorlarning xavf guruhlarini shakllantiradi; xavf guruhiga kirgan shaxslar va bemor to'g'risida ma'lumotlar to'playdi: oilaning iqtisodiy-ijtimoiy holati, oila tarkibi, mehnat xarakteri, kasbga aloqador zararli omillar, xo'jalik va maishiy yashash sharoiti, zararli odatlari, tibbiy bilim va tibbiy madaniyati, oiladagi ruhiy holatini kasallikning xavf darajasini aniqlaydi va xavf guruhlarini shakllantiradi; xavf guruhiga kiruvchi xavf omillari mavjud shaxslarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shunday qilib, kasallik profilaktikasi majmuaviy dasturiga tizimli yondashuv quyidagi ketma-ket keladigan qadamlarni o'z ichiga oladi.

1.Koronavirus kasalligida uchraydigan belgilar bilan murojaat qilgan bemorlardan to'liq anamnez ma'lumotlari olinadi. Olingan anamnez ma'lumotlari jadvalga qo'yiladi va xavf omillari belgilab olinadi.

2.Xavf darajasiga ko'ra bemorlar 3 guruhga ajratiladi: xavfning eng kichik darajasi, xavfning o'rtacha darajasi, xavfning eng yuqori darajasi. Har bir xavf guruhiga kirgan shaxslar bo'yicha tuzilgan individual chora-tadbirlar ularning ambulator kartasida qayd etilib boriladi. Xavf omili ehtimollik darajasi ortgan sari bemorlarni yomon istiqbolli guruhga kiritish xavfi oshib boraveradi.

3. Xavfning o'rta ehtimollik chegarasi mavjud bo'lgan diqqatni talab qiladigan guruhlarda maxsus instrumental tekshirishlar o'tkazish maqsadida infeksiyaga yuboriladi, sog'lomlashtirishning individual rejasi ishlab chiqiladi, sog'lom dispanser guruhi tashkil etilib, faol kuzatilib, kerak bo'lsa faol davolab, kun va ish tartibi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

4.Xavfning eng ko'p ehtimollik chegarasi mavjud bo'lgan eng yuqori istiqbolli guruhlarda esa bemorni zarur bo'lganda hospitalizatsiya qilish, ikkilamchi profilaktika choralarni amalga oshirish tadbirlari olib boriladi: ular bilan kontakti imkon darajasida cheklash; yondosh kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, davolash va oldini olish; aholi orasida va bemorlarda xavf guruhini kompleks baholashga imkon beradigan mazkur

istiqbolli jadvaldan keng foydalanish BTTYO muassasalarida faoliyat yuritadigan tibbiyot xodimlari, sogʻliqni saqlash muassasalari rahbarlariga kasallikni kamaytirish, uni erta aniqlash, diagnostika qilish va adekvat davolashga qaratilgan ilmiy asoslangan choratadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

IV BOB. KASALLIK XAVFINI KAMAYTIRISHDA MAXSUS LABORATORIYA MUASSASALARINING O'RNI

4.1. Pandemiya davrida maxsus laboratoriya muassasalarini tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasida COVID-19 epidemik jarayonining rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tabiiy-geografik va texnogen omillarning ta'siri bilan bog'liq ba'zi xususiyatlarga ega. COVID-19 pandemiyasi davrida butun dunyo davlatlari kabi O'zbekiston Respublikasi ham sog'liqni saqlash sohasida jiddiy muammolarga duch keldi. 2020-yil mart oyida pandemiyaning boshlanishi virus tarqalishini oldini olishga qaratilgan qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur masalalardan biri edi. Davlat chegaralarining yopilishi, ko'chalarda harakatga qat'iy cheklovlar qo'yildi, ta'lim muassasalari, bozorlar va jamoat joylari yopildi. Aholiga malakali tibbiy yordam va immunoprofilaktika xizmatini ko'rsatish : sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri edi. Ammo 2021 yilda aholini ommaviy emlash boshlandi, bu esa kasallanish darajasini sezilarli darajada kamaytirdi.

Davlat tomonidan aholiga tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlari ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. Ammo hali ham epidemiologik vaziyat barqaror emas edi kasallik vaqti vaqti bilan ko'payib tushib turdi. Mazkur tendensiya butun dunyoda kuzatilib olimlarning fikricha ushbu tendensiya kasallikning ikkinchi va uchinchi to'liqini deya baholandi. Respublikamizda ushbu davrda amalga oshirilgan chora-tadbirlar sekin astalik bilan o'z samarasini bera boshladi va aholi orasida kasallanishlar soni kamayib bordi va sekin astalik bilan joriy qilingan cheklovlar yumshatila boshlandi.

Covid-19 pandemiyasi davrida laboratoriya xizmati virus tarqalishiga qarshi kurashda va aholi salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Laboratoriyalar kasallik tashxisini qo'yadi, odamlarni virus uchun tekshiradi va davolash sifati va emlash samaradorligini nazorat qiladi. COVID-19 pandemiyasi davrida O'zbekiston Respublikasida laboratoriya xizmatining ahamiyati quyidagicha:

Tez va aniq tashxis. Laboratoriyalar zamonaviy asbob-uskunalar va usullardan foydalangan holda COVID-19 testini o'tkazmoqda, bu kasallikni erta aniqlash va uning tarqalishining oldini olish imkonini beradi.

Virus tarqalishini kuzatish. Laboratoriyalar virus tarqalishining oldini olish uchun samarali choralar ko'rish uchun kasalliklarni nazorat qiladi va ma'lumotlarni rasmiylarga uzatadi.

Davolash sifatini nazorat qilish. Laboratoriyalar COVID-19 davolash samaradorligini tahlil qiladi va shifokorlarga har bir bemor uchun optimal terapiya usullarini tanlashda yordam beradi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish. Laboratoriyalar virusni o'rganish va COVID-19 diagnostikasi va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Shunday qilib, laboratoriya xizmati aniq tashxis qo'yish, virus tarqalishini monitoring qilish, davolash sifatini nazorat qilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'minlash orqali O'zbekiston Respublikasida COVID-19 pandemiyasiga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

Covid-19 pandemiyasi davrida laboratoriya xizmati virus tarqalishiga qarshi kurashda va aholi salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Laboratoriyalar kasallik tashxisini qo'yadi, odamlarni virus uchun tekshiradi va davolash sifati va emlash samaradorligini nazorat qiladi.

COVID-19 holatlarini to'liq va erta aniqlash va natijada o'z vaqtida izolyatsiya qilish va kontaktlarni diqqat bilan kuzatib borish yangi koronavirus infeksiyasi epidemiyasiga qarshi kurashning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Laboratoriya diagnostikasi bilan aholini qamrab olish hajmi COVID-19 bilan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining statistik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Yuqtirganlarning yuqori aniqlanishi COVID-19 o'lim o'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Ya'ni, laboratoriya diagnostikasi epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar majmuasida muhim o'rin tutadi va COVID-19 bilan kasallanish va o'lim darajasini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi.

Ishning ushbu qismida laboratoriya xizmati xususiyatlari o'rganildi va O'zbekiston Respublikasida yangi koronavirus infeksiyasining (COVID-19) laboratoriya diagnostikasi natijalari tahlil qilindi.

Res SEO va JSQning asosiy vazifalaridan biri bemorlar va kontaktli odamlarda infektsiya manbalarini aniqlash va tashxislashga, shu jumladan laboratoriya usullaridan foydalanishga qaratilgan edi.

Dastlabki oylarda COVID-19 bilan kasallanganlarning klinik na'munalarini to'g'ri olish, yig'ish va tashishda ishtirok etuvchi hodimlarning bilim va ko'nikmalari yetarli emas edi. Kasallik bo'yicha klinik bayonnomalarning ishlab chiqilmagani, laboratoriya diagnostikasi uchun maxsus asbob uskunalar va apparatlarning yetishmasligi kabi muammolar ushbu virusni erta aniqlash va unga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini bermadi. Natijada butun dunyo kabi yurtimizda ham sog'liqni saqlash tizimi oldida ulkan vazifalar borligini nafaqat tibbiyot hodimlari balki juda ko'plab sohalar ham tushunib yetishdi. Yurtimizda COVID-19 kasalligi dastlab 16 mart 2020-yil kuni Fransiyadan kelgan ayol kishida aniqlandi va qisqa muddat ichida butun mamlakat bo'ylab tarqala boshladi. Shu kundan boshlab mamlakatimizda karantinga qarshi chora-tadbirlar kuchaytirildi. Ammo ushbu virus tezlik bilan aholi orasida tarqala boshladi.

COVID-19 laboratoriya diagnostikasini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Milliy referens laboratoriyasi to'g'risida nizomi ishlab chiqilgan. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4790-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

Laboratoriyaning asosiy vazifalari va funksional majburiyatlari

Milliy referens laboratoriyasi asosiy vazifasi aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi. Milliy referens laboratoriyasi sanitariya gigiena, bakteriologiya yo'nalishi xamda aholi salomatligi masalalarida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

Respublika hududida joylashgan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar respublikada oziq-ovqat

mahsulotlari, xalq iste'moli va ishlab chiqarish texnologiyalari yuzasidan aholi salomatligiga ta'sir qiluvchi omillar bo'yicha laboratoriya tahlillar olib boradi. Respublikadagi barcha hududiy boshqarmalar qoshidagi laboratoriya majmualarini ichki audit va attestatsiyadan o'tqazish, akkreditatsiyaga tayyorlash borasida hamda sifat menedjmentini, metrologiya va standartizatsiya yo'nalishlarda amaliy yordam ko'rsatadi. Hududiy boshqarmalar laboratoriya majmuasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida o'quv seminarlar tashkil etadi va malaka oshirishlarini doimiy nazorat qiladi. Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda laboratoriya tahlillarini o'tkazadi. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tekshiruvlar nomenklaturasiga asosan inson va tashqi muhit ob'ektlaridan olingan biologik moddalarni tekshirishda, asbob-uskunalar va sarflanuvchi vositalar bilan ta'minlashda SEOvaJSXning hududiy boshqarmalarning virusologiya laboratoriyalariga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish.

Qonunda belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatish ya'ni qonunchilikka zid bo'lmagan tashkiliy huquqiy shaklda faoliyat ko'rsatishni tashkil etish.

Milliy referens laboratoriyasining mehnat samaradorligini yuksaltirish va xodimlarni rag'batlantirish maqsadida, budjetdan tashqari tushgan mablag'lardan foydalanish.

Milliy referens laboratoriyasiga taaluqli muammolarni yechimini topish maqsadida ilmiy xodimlar va boshqa yetakchi mutaxassislarni shartnoma asosida ishga jalb etish.

Milliy referens laboratoriya xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan shartnoma asosida qonunda chetlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish. Bundan tashqari 3-4-gurux patogen kasallik qo'zg'atuvchilari bilan ishlash tartibi, xavfsizlik qoidalari va shaxsiy gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish, tizimli ravishda xavfsizlik bo'yicha mashg'ulotlardan o'tish.

Milliy referens laboratoriyasi tarkibiy tuzilmasi quyidagicha (4.1-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining
Milliy referens laboratoriyasi
TARKIBIY TUZILMASI



4.2. Kasallikni erta aniqlash va tashxislashda laborator tahlil natijalarining o'rni

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishini diagnostika qilish va tezkor monitoring qilish maqsadida Res SEO va JSQ ning Milliy referens laboratoriyasi tomonidan PCR usuli bilan 117380 kishi tekshirildi, shundan 17,6 foizi ijobiy natija chiqdi.

Biz tekshiruv vaqtiga, tekshirilayotgan shaxslarning yoshiga va dastlabki klinik tashxisga qarab polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) usuli bilan covid-19 uchun laboratoriya sinovlarining samaradorligini tahlil qildik.

Laboratoriya tadqiqotlari 2020 yil mart oyida boshlangan. Har oyda tekshirilganlar soni doimiy ravishda o'sib bordi, 2020 yilda har oyda tanlangan namunalarning ulushi aprel oyida 6,5% dan iyulda eng ko'p 20,2% gacha o'sdi. Avgust va sentabr oylarida

tekshirilganlarning foizi 2020 yil uchun o'rtacha oylik qiymatlarda barqarorlashdi – 13,6-17,7 %. Biroq, oktyabr-dekabr oylarida namunalar soni 5,95-7,7% gacha kamaydi, garchi mintaqada yangi koronavirus infeksiyasi (COVID-19) bilan kasallanish darajasi shu oylarda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan bo'lsa ham (3.1-bob). Ushbu oylarda covid-19 uchun laboratoriya tadqiqotlari boshqa sog'liqni saqlash muassasalari va tijorat laboratoriyalari ishiga joriy etildi, ruxsat etilgan tadqiqot usullari ro'yxati kengaytirildi.

2020 yilda o'tkazilgan barcha tadqiqotlar orasida pcrda ijobiy topilmalarning chastotasi 18,1% ni tashkil etdi. Turli oylarda u sezilarli darajada farq qildi (4.2-jadval.).

4.2-jadval

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasida 2020 yilning 6 oyida tekshirilgan namunalar va aniqlangan musbat natijalar

Sana	Tekshirilgan namunalar soni	Shundan musbat natijalar soni	Foiz hisobida
07.2020	44358	13750	31
08.2020	64 046	17 373	27
09.2020	95 574	25 075	26
10.2020	113916	31658	27
11.2020	117 380	32 338	27

Shunday qilib, mart oyida tekshirilganlar orasida yuqtirganlarning ulushi eng past – 0,7% ni tashkil etdi. Buning sababi, virusni DNR hududiga kiritgandan so'ng, birinchi marta tarqalganda, populyatsiyada patogenning aylanishining past darajasi bo'lishi mumkin. Keyingi oylarda PCR tadqiqotida COVID-19 uchun ijobiy javob darajasi aprel oyida 9,8,0% dan oktyabrda 23,4% gacha barqaror ravishda oshdi. Noyabr va dekabr oylarida tekshirilganlar orasida yuqtirganlarning 18,3-19,1% bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ijobiy PCR natijalarining o'ziga xos og'irligining oshishi aholi orasida COVID-19 patogenining aylanish kengligining oshganligini va yangi koronavirus infeksiyasini klinik va laboratoriya diagnostikasi jarayonida shifokorlarning malakasini oshirganligini ko'rsatadi.

Turli yoshdagi shaxslar o'rtasida polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) usuli bilan covid-19 laboratoriya sinovlarining samaradorligini tahlil qilish tekshirilganlarning ulushi sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rsatdi (jadval. 5.3).

Shunday qilib, tashxis ko'pincha 61-70 yoshdagi bemorlarda PCR yordamida tasdiqlangan (barcha yoshdagi bemorlarning 21,2%). Ikkinchi o'rinda 51-60 yosh guruhidagi shaxslar (19,4 %), uchinchi o'rinda 41-50 yosh (15,2 %). Bu ushbu yoshdagi shaxslarning mutanosib ravishda yuqori o'ziga xos og'irligi bilan bog'liq

COVID-19 laboratoriya diagnostikasiga muhtoj bo'lgan bemorlar orasida guruhlar. Yosh shaxslar (19 yoshdan 30 yoshgacha) tekshirilganlar orasida 9,9 foizni, 15-18 yoshdagi o'smirlar 1,6 foizni, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar 5,1 foizni tashkil etdi.

Biroq, COVID-19 ga ijobiy javob berish darajasi sezilarli darajada farq qilmadi. Bu 0 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan guruhlar uchun o'rganilgan umumiy aholi uchun o'rtacha ko'rsatkichdan (23,1 %) past edi va 12,9-18,4% oralig'ida edi. Keksa odamlar orasida patogen tez-tez aniqlangan. 71 va undan katta yoshdagi so'rovda qatnashganlar guruhida 35,1% ijobiy javob, 61-70 yosh – 29,2 %, 51-60 yosh – 23,8 %. Olingan natijalar Toshkent shaxrida ro'yxatdan o'tgan turli yoshdagi odamlarda yangi koronavirus infeksiyasining paydo bo'lishi bilan mos keladi.

Respublika referens laboratoriyasida turli tashxis qo'yilgan bemorlardan PZRga COVID-19 tadqiqotlari uchun materiallar kelib tushdi (jadval. 5.4). Ko'pincha yangi koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemorlar bilan aloqada bo'lgan shaxslar tekshirildi, ular tekshirilganlarning deyarli uchdan bir qismini tashkil etdi – 30,2 %. Ularning 13,8 foizida patogen ajratilgan, bu esa ushbu epidemiyaga qarshi tadbirning samaradorligini ko'rsatadi.

COVID-19 tashxisi qo'yilgan va COVID-19 shubhasi bo'lgan bemorlar ham tekshirilganlarning deyarli uchdan bir qismini tashkil etdi (29,7 %). Ushbu tashxis ularning 20,8 foizida laboratoriya tomonidan tasdiqlangan. Biroq, salbiy javob bilan tekshirilganlarning hammasi ham yangi koronavirus infeksiyasi tashxisini bekor qila olmaydi, chunki laboratoriya tekshiruvlarining noto'g'ri salbiy natijalari mumkin.

Noto'g'ri salbiy javoblarning sabablari ob'ektiv omillar (virusning o'zgaruvchanligi, yuqumli jarayonning rivojlanish bosqichi, to'plamlar va sinov tizimlarining sezgirliги va

o'ziga xosligi) va sub'ektiv omillar (materialni olish va etkazib berishdagi xatolar, laboratoriya tahlillari, tadqiqot usullarini noto'g'ri tanlash) bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

COVID-19 uchun tekshirilgan odamlarning katta qismini pnevmoniya tashxisi qo'yilgan bemorlar egallagan – 27,6 %. Ushbu guruhda eng ko'p (tekshirilganlarning 33,3 foizida) yangi koronavirus infeksiyasining qo'zg'atuvchisi aniqlanadi. Ijobiy javoblar chastotasi bo'yicha ikkinchi o'rinda SARS tashxisi qo'yilgan bemorlar bor edi, koronavirus ushbu guruhdagi odamlarning 23,3 foizida aniqlangan. Shu bilan birga, turli xil patologiyalar bilan tekshirilganlarning tarkibida ORVI bilan og'rigan bemorlar eng kam ulushni – 1,2% ni tashkil etdi.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, pnevmoniya va ORVI tashxisi ostida 33,2 – 23,3% yangi koronavirus infeksiyasi bilan og'rigan bemorlarni-patogen manbalarini yashirishi mumkin. Laboratoriya bunday bemorlarni tekshirish klinik (o'limning oldini olish) va epidemiyaga qarshi (izolyatsiya) muhim ahamiyatga ega infeksiya manbalari) pozitsiyalari. Pnevmoniya va ORVI bilan og'rigan bemorlarda laboratoriya tomonidan tasdiqlangan COVID-19 tashxislarining yuqori ulushi tarqalish darajasini hisobga olgan holda epidemiologik diagnostika va epidemik jarayonni bashorat qilish imkonini beradi pnevmoniya va SARS aholisi orasida 4.3-bo'limda muhokama qilinadi.

Tekshirilgan shaxslarning ozgina qismini homilador ayollar tashkil etdi (2,1 %). Namunalarda ularning 10,8 foizi koronavirusni ajratib olgan. Boshqa tashxislar bilan odamlarning 3,4 foizi tekshirildi, ushbu guruhdagi patogen juda kam ajralib chiqdi – tekshirilganlarning 1,5 foizida.

Shunday qilib, 2020 yilda 33790 kishidan 39633 ta material namunalari tekshirildi. Laboratoriyalarga etkazib beriladigan namunalar soni har oyda (martdan sentyabrgacha) oshdi. Tadqiqotlarning maksimal darajasi iyul oyida 6142 edi. Ijobiy natijalar darajasi aprel oyida 11,0% dan oktyabr-dekabr oylarida 41,3-38,9% gacha ko'tarildi, bu Toshkent mintaqasida yangi koronavirus infeksiyasining epidemik tarqalish intensivligi bilan bog'liq.

Ko'pincha laboratoriyada katta yoshdagi shaxslardan materiallar etkazib berildi: 71 yosh va undan katta yoshdagilar – 14,3 %, 61-70 yosh – 21,2 %, 51-60 yosh – 19,2 %, 41-50 yosh – 15,2%. Tekshirilganlarning yoshi qanchalik katta bo'lsa, ular orasida

COVID qo'zg'atuvchisi shunchalik tez-tez aniqlandi-19: 35,1 %, 29,2 %, 23,8 %, 18,4 % shunga ko'ra. Tekshirilgan bolalar, o'smirlar va yoshlar orasida ijobiy javoblarning ulushi 12,9% dan 16,5% gacha bo'lgan.

Tekshirilganlar orasida 29,7% COVID-19 bilan kasallanganlar va COVID-19 bilan kasallanganlar, 30,2% COVID – 19 manbalari bilan aloqa qilganlar, 27,6% pnevmoniya bilan kasallanganlar. Ko'pincha COVID-19 tashxisi patologik materialni o'rganishda (51,5 %), pnevmoniya (33,2 %) va ORVI (23,3 %), COVID-19 (20,8%) bilan og'rikan bemorlarda tasdiqlangan.

Barcha tekshirilganlar uchun ijobiy javoblar darajasi 23,1% ni tashkil etdi, har oyda tekshirilganlar soni ikki mingdan olti minggacha bo'lgan (100 ming kishiga 88,0-264,0).). COVID-19 uchun laboratoriya tadqiqotlarining barcha turlarini (PCR, Elisa, tezkor testlar) hisobga olgan holda, Referens laboratoriyada test o'tkazish darajasi kuniga 100 ming aholiga 30,0 dan yuqori edi, ammo bu Rossiya Federatsiyasining me'yoriy darajasidan 6 baravar past.

Bunday vaziyatda COVID-19 holatlarining aksariyatini o'z vaqtida aniqlash, koefitsientni ishonchli hisoblash imkoniyati yo'q edi

infektsiyaning tarqalishi va vaziyatning rivojlanishini bashorat qilish. Yangi koronavirus infeksiyasining gipodiagnostikasi sharoitida Donetsk mintaqasida COVID-19 tarqalish ko'lamini baholashni optimallashtirishga oqilona yondashuvlarni ishlab chiqish zarur, bu 7-bobda yoritiladi.

Referens laboratoriyada yangi koronavirus infeksiyasini (COVID-19) tashkil etish xususiyatlari va laboratoriya diagnostikasi natijalarini o'rganish natijalarini umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, tegishli kontingentlarning COVID-19 uchun to'liq va o'z vaqtida laboratoriya tekshiruvi epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etishda, kasallikning klinik natijalarini yaxshilashda va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasida stressni keltirib chiqaradigan va inqiroz omillarini baholash oqibatlari sharoitida laboratoriya diagnostikasini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega.


Aniqlanishicha, infeksiyaning tarqalishining dastlabki bosqichida laboratoriya tadqiqotlarini tashkil etishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza o'z vaqtida va to'liq yaratilgan va yangilangan, buyruqlar qabul qilingan, uslubiy tavsiyalar joriy etilgan.

Bu COVID-19 laboratoriya diagnostikasi tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirishga yordam berdi. Biologik materialni laboratoriyaga etkazib berish, aholining turli toifalaridagi materiallarni tekshirish tartibi (COVID-19 kasalligiga shubha qilingan shaxslar, jamoat tomonidan pnevmoniya bilan kasallangan shaxslar, COVID-19 bemorlari bilan aloqa qilish) masalalari tartibga solindi. COVID-19 ni PCR usuli bilan tasdiqlash uchun sanitariya markazining uchta laboratoriyasi jalb qilingan-epidemiologik nazorat, kuchaytirish guruhlarini tuzildi, kadrlar maxsus tayyorgarlikdan o'tdi. Laboratoriyalar kuniga 300 tagacha namunalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazdilar. Davolash-profilaktika muassasalarida va tijorat laboratoriyalarida serologik va immunoxromatografik usullarning joriy etilishi RefLabda COVID-19 uchun laboratoriya tadqiqotlari qamrovini kuniga 100 ming aholiga 30,0 dan ortiq darajaga oshirishga imkon berdi. Biroq, u me'yoriy darajadan 6 baravar past edi, bu yangi koronavirus infeksiyasining barcha holatlarini aniqlash va hisobga olishni qiyinlashtirdi.

V BOB. PANDEMIYA DAVRIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI NAZORAT QILISHDA MONITORING TIZIMINING AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasida yangi koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining zamonaviy tendensiyalari ushbu kasallikning nazoratini olib borish uchun to'g'ri profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini adekvat baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan biz yangi koronavirus infeksiyasi (COVID-19) ning gigiyenik monitoringi tizimining tarkibiy-funksional sxemasini ishlab chiqdik va aholining COVID-19 bilan kasallanish darajasi, uning sog'liqni saqlash tizimiga tushayotgan tibbiy-ijtimoiy hamda iqtisodiy yukini bashoratlashga yondashuvlar takomillashtirildi.

O'zbekistonda COVID-19 epidemiologik va gigiyenik tahlili natijalariga ko'ra, aholi orasida kasallik tarqalishiga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit va gigiyenik omillarini o'rganish, ishlab chiqilgan nazorat choralari samaradorligini oshirishga imkon berishi isbotlandi. Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra COVID-19 kasalligini nazorat qilish va boshqarishning zamonaviy tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan (5.1-rasm). Ushbu taklif etilayotgan monitoring tizimi uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish va bashoratlash, tahlil qilingan ma'lumotlar asosida boshqaruvni amalga oshirish. Ushbu har bir yo'nalish funksional jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq ҳисобланади.



5.1-rasm. Koronavirus infeksiyasini (COVID-19) gigienik monitoring qilishning tarkibiy funksional tuzilmasi

Koronavirus infeksiyasining tarqalishi va bemorlarning kasallikni qay darajada o'tkazishiga ta'sir qiluvchi atrof muhit, turmush sharoiti va tarzi hamda gigiyenik omillarni kompleks gigiyenik baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi.

-tibbiy omillar: bemorlarda hamroh kasalliklarning mavjudligi, tibbiy madaniyatning pastligi, olis xududlarda tor soxa mutaxassislarining yetishmasligi, BTTYO muassasalarining yetarlicha zamonaviy asbob uskunalar bilan ta'minlanmaganligi

-biologik omillar: SARS-CoV-2 virusining shtammlarining o'zgaruvchanligi, uning oqsil strukturasi, serologiyasi, virulentligi kabi omillarning aholi orasida ushbu kasallikning keng miqyosda tarqalishiga ta'siri.

-atrof muhit omillari: tabiiy va iqlim omillari, bundan tashqari tabiiy muhitga inson organizmining ta'siri natijalari.

-ijtimoiy omillar: turmush tarzi, yashash va mehnat sharoiti, ovqatlanish rejimi, zararli odatlarning mavjudligi, jismoniy mashg'ulotlar bilan doimiy shug'ullanishi.

-fizik omillar: shovqin, tebranish, ultratovush, infraqizil nurlanish, issiqlik kabi omillar inson salomatligiga bevosita ta'sir qilishi hamda ushbu omillarning me'yoridan yuqoriligi organizm immun sistemasining susayishiga natijada esa turli xil yuqumli kasalliklarga jumladan COVID-19 kasalligi bilan xastalanishga hamda kasallikni og'ir va o'ta og'ir holatda o'tkazishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu taklif etilayotgan gigiyenik monitoring tizimi birinchi blokini ma'lumotlar bloki deb belgiladik bunda koronavirus infeksiyasi xaqidagi jamiki ma'lumotlar to'planadi va ikkinchi bosqichga ya'ni ma'lumotlarni tizimlashtirish bosqichiga o'tkaziladi ushbu bosqichda to'plangan ma'lumotlar yo'nalishi bo'yicha saralanadi. Shundan so'ng saralangan ma'lumotlar to'plamlarining har biri yo'nalishlar bo'yicha uzatiladi.

Keyingi blok bu tahlil qilish bloki xisoblanib bu yerda kasallanish va xavf omillari tahlili, sabab oqibat munosabatlarini miqdoriy baholash hamda kasallanishni qisqa va uzoq muddatli bashoratlash amalga oshiriladi.

Uchinchi boshqaruv bloki esa 2 xil tizimda amalga oshiriladi birinchisi boshqaruv qarorlarini bajarilishini ta'minlash tizimi ikkinchisi COVID-19 uchun hududlarga yo'naltirilgan gigiyenik monitoring dasturlarini ishlab chiqish.

COVID-19 ning gigenik monitoringini olib borish tizimi hududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib moslashtirilishi kerak. Ushbu tadbirlarni ma'muriy-xududiy mintaqalarga bo'lib amalga oshirish quyidagi uchta bosqichda amalga oshiriladi: - tuman miqyosida (birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari davolash va diagnostika, kasalliklarni ro'yhatga olish, birlamchi epidemiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, immunioprofilaktika ishlarini tashkil qilish va amalga oshirish ishlarini bajaradi); - viloyat miqyosida: tuman va shaxarlardan kelgan ma'lumotlarni to'plash va uning bazasini shakllantirish va tahlil qilishni amalga oshiriladi; - respublika miqyosida: ma'muriy xududlardan kelgan ma'lumotlarni guruhlash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish, ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni asoslash va kelajakdagi ehtiyojlarni bashoratlash kabi ishlarni amalga oshiradi.

Yuqori darajada (respublika) COVID-19 ga qarshi kurashish taktikasi va strategiyalarini ishlab chiqish, bor resurslardan unumli foydalanish uchun to'g'ri taqsimlash, epidemiyani nazorat qilish va boshqarish vazifalarini ishlab chiqish uchun vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Aholi orasida koronavirus infeksiyasining tarqalishi keskin oshib ketmasligi uchun ushbu monitoring tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, ularni to'g'ri to'liq to'planishini nazoratga olish va ushbu to'plangan ma'lumotlarga asoslanib o'z vaqtida kechiktirib bo'lmaydigan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ushbu gigiyenik monitoringni qanchalik ahamiyatga molik ekanligini ko'rsatadi.

VI BOB. BEMORLARGA KO'RSATILAYOTGAN TIBBIY-IJTIMOIIY XIZMAT VA UNI YAXSHILASH YO'LLARI

COVID-19 kasalligi butun dunyo bo'ylab tez tarqalib, sog'liqni saqlash tizimiga, shuningdek ijtimoiy, iqtisodiy sohalarga xam o'z tasirini o'tkazdi. Buning natijasida shubhasiz, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy darajadagi yangi global inqirozni keltirib chiqardi va bu aholi salomatligini saqlash borasidagi tadbirlarni amalga oshirish yo'lidagi muammolarni yanada kengaytirdi [136].


Hozirgi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyoda koronavirus infeksiyasining tarqalishi va uning oldini olish, shuningdek kasalxonada davolanayotgan bemorlarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish borasida o'zining tizimli yo'nalishiga ega davlatlar qatorida sanalmoqda.

